

TINGLAB TUSHUNISH KO'NIKMASINING PSIXOLINGVISTIK VA PEDAGOGIK MOHIYATI

Shaxnoza Xikmatullayevna Akbarova

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Mumtoz sharq filologiyasi fakulteti,

O'zbek va xorijiy tillar kafedrasida dotsenti,

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tinglab tushunish ko'nikmasining psixolingvistik va pedagogik mohiyati nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Maqolada tinglab tushunish nutq faoliyatining reseptiv turi sifatida ta'riflanib, uning faol kognitiv jarayon ekanligi J. Field, M. Rost kabi yetakchi olimlarning qarashlari asosida yoritiladi. Shuningdek, tinglab tushunish jarayonining muvaffaqiyatiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar, psixologik mexanizmlar (diqqat, xotira, idrok etish, taxmin qilish) tahlil qilinadi. G. Buck tomonidan taklif etilgan ikki darajali model (identifikatsiya va ma'noni anglash darajalari) hamda J. Wilson, J. Flowerdew va L. Miller tomonidan ishlab chiqilgan uch bosqichli pedagogik model (matn oldi, matn ustida ishlash, matndan keyingi bosqichlar) batafsil yoritiladi. Maqolada oliy ta'lim talabalarida tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirishda bosqichma-bosqich yondashuv, metakognitiv strategiyalar va psixologik omillarni hisobga olishning ahamiyati asoslanadi.

Kalit so'zlar: *tinglab tushunish, psixolingvistika, pedagogika, reseptiv nutq faoliyati, kognitiv jarayon, metakognitiv strategiyalar, ikki darajali model, uch bosqichli model, eshitish idroki, xotira, diqqat.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются психолингвистическая и педагогическая сущность навыка аудирования (понимания речи на слух). Аудирование определяется как рецептивный вид речевой деятельности, а его активный когнитивный характер раскрывается на основе взглядов таких ведущих ученых, как Дж. Филд и М. Рост. В статье также анализируются внутренние и внешние факторы, влияющие на успешность процесса аудирования, а также психологические механизмы (внимание, память, восприятие, антиципация). Подробно рассматриваются двухуровневая модель, предложенная Г. Баком (уровни идентификации и понимания смысла), а также трёхэтапная педагогическая модель, разработанная Дж. Уилсоном, Дж. Флауэрдью и Л. Миллером (предтекстовый, текстовый и послетекстовый этапы). В статье

обосновывается важность поэтапного подхода, использования метакогнитивных стратегий и учёта психологических факторов при развитии навыков аудирования у студентов высших учебных заведений.

Ключевые слова: аудирование, понимание на слух, психолингвистика, педагогика, рецептивная речевая деятельность, когнитивный процесс, метакогнитивные стратегии, двухуровневая модель, трёхэтапная модель, слуховое восприятие, память, внимание.

ABSTRACT

This article provides a theoretical analysis of the psycholinguistic and pedagogical essence of listening comprehension skills. Listening comprehension is defined as a receptive type of speech activity, and its nature as an active cognitive process is examined through the perspectives of leading scholars such as J. Field and M. Rost. The article analyzes internal and external factors influencing the success of the listening process, as well as psychological mechanisms (attention, memory, perception, anticipation). A detailed discussion is provided on G. Buck's two-level model (identification and comprehension levels) and the three-stage pedagogical model (pre-listening, while-listening, and post-listening stages) developed by J. Wilson, J. Flowerdew, and L. Miller. The article substantiates the importance of a stage-by-stage approach, the use of metacognitive strategies, and the consideration of psychological factors in developing listening comprehension skills among higher education students.

Keywords: listening comprehension, psycholinguistics, pedagogy, receptive speech activity, cognitive process, metacognitive strategies, two-level model, three-stage model, auditory perception, memory, attention.

KIRISH

Tinglab tushunish (listening comprehension) nutq faoliyatining reseptiv turlaridan biri bo‘lib, og‘zaki nutqni idrok etish, tushunish va qabul qilingan axborotni qayta ishlash jarayonidir. Til o‘rgatish metodikasi bo‘yicha yetakchi mutaxassislardan biri J. Field ta’kidlashicha, “tinglab tushunish nafaqat eshitish orqali signallarni qabul qilish, balki ularni tanib olish, farqlash, ma’nosini tushunish, xotirada saqlash va kerakli xulosalar chiqarishni o‘z ichiga olgan murakkab, ko‘p bosqichli va faol jarayondir” [2]. Ushbu ta’rif tinglab tushunishning passiv jarayon emas, balki faol kognitiv faoliyat ekanligini ko‘rsatadi. Bu fikrni M. Rost ham qo‘llab-quvvatlaydi va “tinglash jarayoni tinglovchining oldingi bilimlari, til tajribasi va kognitiv strategiyalarining o‘zaro ta’siri asosida amalga oshadi”, deb ta’kidlaydi [6].

Pedagogik va psixolingvistik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tinglab tushunish jarayonining muvaffaqiyatli kechishi bir qancha omillarga bog'liq. J. Rost o'zining "Teaching and Researching Listening" asarida bu omillarni tizimlashtirgan holda quyidagilarni ajratib ko'rsatadi: "til materialining murakkabligi, nutq tezligi, diktorning talaffuzi, shovqinlar, tinglovchining bilim darajasi va tajribasi, diqqatning barqarorligi va motivatsiya". Ushbu omillarning barchasi o'zaro bog'liq holda tinglab tushunish jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. J. Field esa bu omillarni ikki guruhga – ichki (til bilish darajasi, diqqat, xotira) va tashqi (nutq tezligi, matn murakkabligi, shovqinlar) omillarga ajratadi va ularning o'zaro ta'sirini alohida ta'kidlaydi [2].

Lingvodidaktika nuqtayi nazaridan, G. Buck "Assessing Listening" asarida tinglab tushunish ko'nikmasi ikki darajada amalga oshishini ta'kidlaydi: "1) identifikatsiya darajasi (tovushlar, so'zlar va sodda gaplarni tanib olish); 2) ma'noni anglash darajasi (matnning mazmunini, asosiy g'oyasini, detallarini tushunish)" [1]. "Ushbu ikki darajali yondashuv tinglab tushunishni o'qitishda bosqichma-bosqich yondashuvning zarurligini asoslab beradi. J. Wilson ham xuddi shunday fikrni bildirib, "tinglab tushunishni o'qitishda avval fonetik va leksik birliklarni tanib olishga, so'ngra matn mazmunini chuqur tushunishga e'tibor qaratish lozim", deb hisoblaydi [8].

Tinglab tushunishning psixologik mexanizmlari haqida so'z yuritganda, L. Vandergrift va C.C.M. Goh "Teaching and Learning Second Language Listening" asarida quyidagi mexanizmlarni ajratib ko'rsatadilar: "eshitish sezgilari, diqqat, xotira (qisqa muddatli va uzoq muddatli), nutqni idrok etish va taxmin qilish (anticipation), ma'noni anglab yetish va tahlil qilish" [7]. Mualliflarning fikricha, bu mexanizmlarning muvofiqlashtirilgan holda ishlashi tinglab tushunish jarayonining muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Xususan, ular metakognitiv strategiyalarning – tinglashni rejalashtirish, kuzatish va baholash – ahamiyatini alohida ta'kidlaydilar.

Bizningcha, yuqoridagi nazariy qarashlar tinglab tushunishni o'qitishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, J. Fieldning tinglab tushunishni "faol kognitiv jarayon" deb ta'riflashi o'qituvchilarga bu ko'nikmani rivojlantirishda talabalarni passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida qarash zarurligini ko'rsatadi. Bu esa o'z navbatida, darslarda talabalarning faolligini oshirishga, ularni mustaqil fikrlashga undashga xizmat qiladi. Shuningdek, G. Buck tomonidan taklif etilgan ikki darajali model tinglab tushunishni o'qitishda bosqichma-bosqich yondashuvni qo'llash lozimligini anglatadi. L. Vandergrift va C.C.M. Goh tomonidan sanab o'tilgan psixologik mexanizmlar esa tinglab tushunishni rivojlantirishda nafaqat lisoniy, balki psixologik omillarni ham hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi.

Pedagogik nuqtayi nazardan, J.C. Richards va T.S. Rodgers “Approaches and Methods in Language Teaching” asarida ta’kidlaganidek, “tinglab tushunishni o’qitish talabalarda eshitish orqali axborot olish, uni tahlil qilish va kerakli vazifalarni bajarish ko’nikmalarini shakllantirishga qaratilgan”[5]. Bu jarayon maxsus tashkil etilgan mashqlar va topshiriqlar tizimi orqali amalga oshiriladi. O‘zbekistonlik olim J. Jalolov ham “Chet til o’qitish metodikasi” asarida tinglab tushunishni o’qitishning o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilib, “bu jarayon talabalarning eshitish orqali idrok etish, tahlil qilish va nutqiy faoliyatni amalga oshirish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qilishi”, kerakligini ta’kidlaydi [4].

J. Wilson “How to Teach Listening” kitobida tinglab tushunishni o’qitishning uch bosqichli modelini taklif etadi: “1) matn oldi (pre-listening) bosqichi – talabalarni tinglashga tayyorlash, motivatsiya yaratish, qiyinchiliklarni bartaraf etish; 2) matn ustida ishlash (while-listening) bosqichi – matnni tinglash va berilgan topshiriqlarni bajarish; 3) matndan keyingi (post-listening) bosqich – tushunilganlikni tekshirish, muhokama qilish va olingan ma’lumotlardan foydalanish”[8]. Ushbu model hozirgi kunda tinglab tushunishni o’qitishda eng keng tarqalgan va samarali modellardan biri hisoblanadi. J. Flowerdew va L. Miller ham “Second Language Listening: Theory and Practice” asarida xuddi shunday bosqichli yondashuvni taklif etadilar va har bir bosqichning o‘ziga xos maqsad va vazifalarini batafsil yoritadilar.

Biz Wilson tomonidan taklif etilgan uch bosqichli modelni juda samarali deb hisoblaymiz, chunki u tinglab tushunish jarayonining psixologik xususiyatlarini to‘liq hisobga oladi. Matn oldi bosqichi talabalarni mavzuga tayyorlash va ularning oldingi bilimlarini faollashtirish orqali tinglash jarayonini yengillashtiradi. Matn ustida ishlash bosqichi turli xil topshiriqlar orqali tinglab tushunishni rivojlantirishga xizmat qiladi. Matndan keyingi bosqich esa olingan ma’lumotlarni boshqa nutq faoliyati turlari bilan integratsiyalash imkonini beradi. Bu model, ayniqsa, oliy ta’lim talabalari bilan ishlashda samarali, chunki ular murakkab matnlarni tushunish va tahlil qilish ko’nikmalariga ega bo’lishlari kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Buck, G. (2001). *Assessing listening*. Cambridge University Press.
2. Field, J. (2008). *Listening in the language classroom*. Cambridge University Press.
3. Flowerdew, J., & Miller, L. (2005). *Second language listening: Theory and practice*. Cambridge University Press.
4. Jalolov, J. (2012). *Chet til o’qitish metodikasi*. O’qituvchi.

5. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and methods in language teaching (3rd ed.). Cambridge University Press.
6. Rost, M. (2011). Teaching and researching listening (2nd ed.). Pearson Education.
7. Vandergrift, L., & Goh, C. C. M. (2012). Teaching and learning second language listening: Metacognition in action. Routledge.
8. Wilson, J. (2008). How to teach listening. Pearson Education.